

ALAMO'YNAQ DUTORINING KELIB CHIQISHI HAQIDA

Raushan Saparbayeva

Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa va san'ati instituti
2-kurs talabasi.

Asatillo Sunnatillayev

Ilmiy rahbar.

Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa va san'ati instituti
“Doston ijrochiligi” kafedrasi dotsenti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13685238>

Annotatsiya. Ushbu maqola Qoraqalpoq xalqining milliy asbobi hisoblanuvchi Alamo'ynaq dutorining kelib chiqishi, uning dastlab qaysi ustalar tomonidan qay tarzda yasalganligi, uning nima sababdan aynan Alamo'ynaq deb nomlanishi, uni chaluvchilar kimlar hisoblanishi haqida.

Kalit so'zlar: Alamo'ynaq dutor, baxshi, sozanda, usta, ijrochi, xalq, me'ros, asbob, tarix, tovush, tor.

ON THE ORIGIN OF ALAMOYNAQ DUTOR

Abstract. This article is about the origin of the Alamo'ynaq dutor, which is the national instrument of the Karakalpak people, how it was originally made by which masters, why it is called Alamo'ynaq, and who are its players.

Key words: Alamoynaq dutor, bakhshi, musician, master, performer, people, heritage, instrument, history, sound, string.

О ПРОИСХОЖДЕНИИ АЛАМОЙНАКА ДУТОРА

Аннотация. В данной статье речь идет о происхождении аламойнакского дутора, который считается национальным инструментом каракалпакского народа, о том, как и какими мастерами он был первоначально изготовлен, почему он называется аламойнак и кто считается его исполнителем.

Ключевые слова: Аламойнак дутор, бахши, музыкант, мастер, исполнитель, народ, наследие, инструмент, история, звук, струна.

Qoraqalpoq xalqi eski xalqlardan biri bo'lib, Markaziy Osiyodagi boshqa xalqlar singari o'zining boy tarixiga, shuningdek o'z zamoniga loyiqli yuqori madaniyatiga ega bo'lgan xalqlarning biri hisoblanadi. Tarixiy ma'lumotlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, qoraqalpoq xalqi o'z turmush tarzining ko'rinishi sifatida turli janrlarda boy adabiyot me'rosiga, milliy soz va qoshiqlariga, qahramonlik va oshiqliq dostonlariga, turli mazmundagi og'zaki asarlar shuning bilan bir qatorda o'zining milliy soz asboblari boy xalq ekanligini ko'ramiz. Bu me'roslarning barchasi xalqning, millatning boyligi, bebahoh g'azinasi bo'lib hisoblanadi.

Qoraqalpoq musiqa madaniyatining yuqori darajada rivojlanishida milliy soz asboblarmiz azaldan salmoqli o'rin egallab keldi. Ular haqida to'xtaladigan bo'lsak tortqich yordami bilan chalinadigan torli asboblardan qo'biz va g'ijjak, barmoq bilan chalinadigan asboblardan dutor va changqo'biz, dam solib chalinadigan- bulomon, sirnay, uchpalak, bundan tashqari doira asboblari bizgacha yetib kelgan.

Ota-bobolarimizning qoldirib ketgan ajoyib asarlari, durdona dostonlarini, xalq nomalarini hisob sanog‘i yo‘q. Bu asarlarning dostonlar, nomalarining qaysi vaqtta va kim tomonidan yaratilganligiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, albatta dutor qoraqalpoq xalqining hayoti bilan chambarchas bog‘liq ekanligini sezamiz. Milliy Dutor asbobi qoraqalpoq xalqi orasida juda keng taralib, faxrli milliy me’rosimizga aylanib, asrlar davomida har qanday tarixiy sharoitlarda, baxtli va qayg‘uli kunlarida, to‘y-yig‘inlarida birga yashab kelayotgan milliy boyligimiz bo‘lib hisoblanadi. Bu asbob “Qoraqalpoqlarda XV asr oxiri, XVI asrning boshlarida juda keng tarqalgan soz asbob qatoriga kiradi, degan tahminlar ham bor. XV asrning oxiri, XVI asrning boshlarida qoraqalpoq dutori ikki xil bo‘lib yasalgan. Birinchi turi pardasiz bo‘lsa, ikkinchi turi pardali bo‘lgan”, deb keltirib o‘tadi Q. Ayekeev o‘zining “Dutor tarixi. Dutor chalish va uni yasash usuli” nomli kitobida.

Bu asbobning kelib chiqishi haqida boshqa asboblar singari ko‘pgina rivoyatlar uchratamiz.

“1906-yili tug‘ilgan urush va mehnat veteran 90 yashar Qurbaniyoz Yusuf o‘g‘li soz asbobining qudrati haqida shunday deydi:

“Payg‘ambarimizning uch oti va shu uch ot ni boqadigan uchta xizmatkori bo‘lgan ekan.

Bu uch odamning vazifasi o‘ziga bekitilgan otga o‘t-yem, suv berib, ot ni semirtirib bog‘ishdan iborat edi. Payg‘ambarimizning o‘zi uzoq yo‘lga chiqqanda minadigan Dul-dul degan to‘ri oti bo‘lganga o‘xshaydi. Payg‘ambarimiz shu otini juda yaxshi ko‘rar ekan. Sababi, ot juda ajoyib ot bo‘lgan, shuning uchun bu ot ni shu eldag‘i eng bilgir otboqar G‘ayip qora degan seyis odamga boqtiradi. Bu odamning ustachilik uqubi ham bor sozanda ekan. Qo‘li bo‘sh paytlarida sirnay, uchpalak va dutorga o‘xshagan soz asboblarini yasab, chalib yurgan. Ko‘p hollarda dutorni har xil muqomga solib chaladigan uqubi bor ekan. Har kuni tongda, kechqurun otga o‘t-yem berib, o‘zi ham ovqatlanib bo‘lgandan keyin, yasagan soz asbobini chalib charchog‘ini chiqarar ekan.

G‘ayip qoraning mehnatkashligini sezgan payg‘ambarimiz bu odamga boshqacha ko‘zqarashda bo‘libdi. Buni qizg‘ongan yonidagi ikki otboqar har xil mish-mish, g‘iybat gaplar aytib, G‘ayip qorani payg‘ambarimizga yomonlab bora beribdi. Dul-dulni o‘zimiz boqamiz_deb, G‘ayip qorani ot baqish yumushidan bo‘shatibdi. Shundan boshlab bu ot o‘tlamapti ham, suv ham ichmabdi. Buni sezgan payg‘ambar ko‘pni ko‘rgan yoshi katta qishloq oqsoqollarini yig‘ib, Dul-dulning o‘t-yem yemay suv ham ichmay kun o‘tgan sari ozib borayotganini aytibdi. Shunda oqsoqollarning bittasi- G‘ayip qoraning o‘zini chaqirtirib gaplashish kerak debdi. Bu so‘z payg‘ambarimizgaham ma‘qul tushib, G‘ayip qorani chaqirtib olibdi. Oqsoqollarning bittasi G‘ayip qoraga qarab: -to‘g‘risini ayt chirog‘im,_deb orqasiga to‘n yopib quyidagi to‘rt qator bayitni aytgan ekan:

To‘ri ot uchun ot boqarini,

O‘lganicha savadi.

Otning ozib ketishi,

Nimadan ekan chirog‘im?

Shunda G‘ayip qora oqsoqollarga quyidagicha javob beribdi:

Yolg‘on gapka oqsoqol

Suvham o‘rga oqadi.

Yolg‘on aytib otboqar,

Jonin o‘tga yoqadi.
Aytar gapi jo‘n bo‘lsa,
Gap egasin topadi.
Tilin topsang jonuvor,
Ot uzoqqa chopadi.
O‘t-yem berib, suv berib,
Shunnan keyin soz chalib,
Yaxshi-yaxshi gapisang,
Mol egasin topadi,

-deb sozini har xil nomaga solib chalgan ekan, ot qulog‘in tikka qilib, qattiq kishnabdi va oyog‘i bilan yerni tepib qo‘ya beribdi...

Ana, shu G‘ayip qora ikki torli dutor soz asbobini yaratganga o‘xshaydi. Bu rivoyatni bolalik vaqtlarimda qishloqda bo‘lgan katta bir to‘yda yoshi kattalarga va baxshi-jirovlarga ot yoqib berayotgan paytim eshittim_dedi Qurbaniyoz ota Yusuf o‘g‘li”.

Dutor qoraqalpoq xalqining milliy musiqiy asbobi bo‘libgina qolmasdan, u xalq musiqasini rivojlantirishda va musiqa madaniyatini boyitishda asosiy ro‘l o‘ynagan asbob bo‘lib hisoblanadi.

Xalqimiz hayotida bu asbobning qadr-qimmati shunchalik darajada yuqori ekanligini har bir qoraqalpoq oilasida dutor asbobi ilinib turishidan va xalqning to‘y-yig‘inlarini baxshilarsiz o‘tmaslidigan ko‘rishimiz mumkin. Baxshi bu qoraqalpoq xalqida dutor asbobini ham chalib, ham kuylab ijro qiladigan hunar egasi hisoblanadi.

Qoraqalpoq dutorlarining dastlabki nusxalari Genjali degan ustaning otasi tomonidan yasalib suyak bilan bezatilgan. Uni Genjali usta davomlagan va shu davrdagi boshqa ustalar ham o‘zlarini yasagan dutorlarga suyakdan naqsh ovyib bezatgan. Navbatda asbobning lug‘aviy ma’nosini haqida aytadigan bo‘lsam, dutor fors tilidan olingan so‘z bo‘lib “du”- ikki, “tor”- tor (sim) ya’ni “ikki torli asbob” degan ma’noni anglatadi. Bu asbobning yasalishi asosan ikki usulda: birinchisi qozma yoki o‘yma dutor, ikkinchisi birikma(qurama) dutor deb aytildi. Ikki turdagiligi dutorning yog‘ochlarida ham farq bo‘ladi. Ya’ni qozma (yoki o‘yma) dutor odatda tut, o‘rik yog‘ochlaridan yasaladigan bo‘lsa, birikma (qurama) dutor asosan tut yog‘ochidan yasalib, bu turdagiligi dutor bo‘laklari o‘zaro belgili tartibda biriktirilib yasaladi. Dutor asbobining ustidagi qopqog‘i qanchalik darajada yupqa va mahkam bo‘lsa, uning ovozi ham shu darajada yaxshi chiqdigan bo‘ladi. Dutorning yuzasi ko‘p hollarda jiyda va tut yog‘ochlarini bilan qoplanadi. Shu qatorda aytib o‘tishim kerak, qoraqalpoqlar dutorini “Alamo‘ynaq dutor” deb ham ataydi. Sababi, dutorning bo‘ynini suyakdan ishlangan har xil naqshlar bilan bezagan. Dastasining yuzasiga ham suyak yopishtirilib ishlangan va bu ko‘rinish juda chiroqli bo‘lib ko‘ringan. Shuning uchun ham uni “Alamo‘ynaq dutor” deb atashgan. Dutorning bo‘yniga qo‘yning ichagidan taylorlangan 12 parda o‘ralib, u xromatik qurilishda tuzilgan. Dutorda faqat 12 parda bo‘lishi kerak deb ko‘rsatilmagan, u har baxshining o‘z yo‘liga qarab ayrim paytlarda ko‘payib ketishi uchraydigan holatlar ham bo‘ladi. Masalan: O‘rinboy baxshi har nomaning uzun-qisqa bo‘lib kelishiga bog‘liq dutoriga doim 14-15 parda boylab yurgan. Dutor asbobining diapazoni 1,5 oktavagacha bo‘lgan.

Xalqimiz orasida qo‘bizni jirovlar jirlab chalgan bo‘lsa, dutor chaladiganlarni “sozanda” deb, uni ham chalib, ham qo‘schiq aytadiganlarni esa “baxshi” deb ataydilar. Dutor barmoq bilan chalinadigan musiqa asboblarning biri. Avvalgi vaqtlardan-oq qoraqalpoqlar xalqida dutor va

boshqa soz asboblarini yasaydigan ustachilik hunari rivojlangan. Ularga Genjeg‘aliy usta, Barliqbay usta, Qazimuxammed usta ulardan so‘ng Erimbet, Karimbergen, Jarmuxammed, Berdaq va boshqa juda ko‘p ustozi ustalarning nomlarini atab o‘tishimiz o‘rinli deb o‘ylaymiz.

Dutorning tuzilishiga to‘xtaladigan bo‘lsak, bu asbob tovush chiqaruvchi bo‘lagi, dastasi, ikkita qulog‘i, dasta bo‘ylab joylashgan pardalardan, ikki tor vas hu torlarni ko‘tarib turuvchi harraktan iborat. Shuningdek, tovush chiqaruvchi bo‘lagining yuzasi yupqa taxta bilan qoplanib, unda qopqoq teshigi bo‘ladi va bu teshik ”tovush chiqaruvchi teshik” deb aytildi.

Bugungi kunda folklor san’atining serjilo chamanlari gurkirab rivojlanib, xalqimizning milliy ongi, milliy g‘ururi, milliy iftixori, ma’naviy dunyosi kundan-kunga boyib bormoqda.

Milliy ruh, milliy g‘ururning tiklanishi bu - rivojlanish bilan bog‘liq bo‘lgan tabiiy jarayondir. Xalqona ruh, betakror samimiyati va qadimiy madaniyatimizning go‘zalligini namoyon etuvchi baxshi san’ati ma’naviy xazina, tunganmas buloq singari asrlar davomida xalqimiz ma’naviyatini boyitib, ongu tafakkuri va his-tuyg‘ularini teranlashtirib kelgan. Baxshi san’ati an’alarini yanada rivojlantirib, ularni yosh avlod turmush tarziga singdirib borish shu jarayonning muhim qirrasidir.

Xulosa o‘rnida shuni aytmoqchimizki, ayni paytda vatanparvar, insonparvar, komil insonni umuminsoniy milliy qadriyatlar uyg‘unligida tarbiyalash mumkinligini hayotning o‘zi ko‘rsatmoqda. Bunda milliy o‘zlikni anglashga e’tibor qaratish, kishida milliy g‘ururni tarbiyalash, boshqa insonlarga hurmat tuyg‘usini qaror toptirish muhim sanaladi. Zotan, tug‘ilib o‘sgan joyiga muhabbat, oilaga, ona tiliga, milliy odatlar va an’analarga munosabat shaxsni fuqaro sifatida xarakterlaydi. Shu bois baxshilarimiz, jirovlarimiz ota-bobolarimiz asrlar bo‘yi asrabavaylab kelgan qadriyatlar orqali yoshlarni ma’naviy-ahloqiy qiyofasini shakllantirishda, kelajagi buyuk o‘zbek yurtining haqiqiy egalari bo‘lgan har tomonlama yetuk komil insonni tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

REFERENCES

1. Айекеев Карлыбай. “Дутар тарийхы. Дутар шертиу хам согыу усылы”. “Билим” баспасы, Нокис 1996-жыл.
2. Aygu'l Nadirova. “Qaraqalpaq muzika tariyxi”. “Sano-standart” baspasi. Toshkent- 2018
3. Matyoqubov B. Doston navolari. Toshkent 2009.